UZTELECOM

Shaxsiy ma’lumotlar va axborot xavfsizligini ta’minlash - bizning ustuvor vazifamizdir.

Kompaniya tomonidan amalga kiritilgan Axborot xavfsizligi siyosati xalqaro standartlar va sohadagi eng yaxshi tajribalarga asoslangan. Biz tarmoqlarimizda zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etamiz va ularni muntazam ravishda takomillashtirib boramiz. Abonentlarimiz va hamkorlarimiz ma’lumotlarining xavfsizligi, maxfiyligi va yaxlitligini ta’minlash - asosiy maqsadlarimizdan biri.

Abonentlar ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida Kompaniya tomonidan Axborot xavfsizligi siyosati ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu Siyosatda ma’lumotlar qanday tamoyillar, yondashuvlar va choralar asosida ishonchli himoya qilinishi hamda xavfsizlik sohasida belgilangan standartlarga rioya qilinishi ko‘rsatib o‘tilgan.

“O‘zbektelekom” AKning Axborot xavfsizligi siyosati

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) o‘z tarmog‘i bilan O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarini qamrab olgan eng yirik telekommunikatsiya operatori hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalanib, Kompaniya barcha turdagi telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi.
Kompaniya o‘z faoliyatida yuqori texnologik axborot-kommunikatsiyalarini samarali joriy etadi va qo‘llaydi. Bunday sharoitda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash zarur vazifadir. Axborot xavfsizligi muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, ushbu yo‘nalish “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining axborot xavfsizligi va rejim bo‘yicha o‘rinbosarining asosiy funksiyalaridan biri etib belgilangan. Axborot xavfsizligiga tegishli apparat-dasturiy ta’minotni o‘rnatish, tarmoqlardagi zaifliklarni aniqlash maqsadida test sinovlarini o‘tkazish, xodimlar uchun treninglar tashkillashtirish va tizimlarni muntazam ravishda monitoring qilish kabi bir qator chora-tadbirlarni joriy etish va amalga oshirish orqali erishiladi. Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Kompaniyaning tarmoqlari uzluksiz ishlashini, tahdidlar natijasida yetkaziladigan zararni minimallashtirishni, abonentlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligini va himoya qilinishini, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi turli tahdidlardan himoya qilinishini, tahdidlarning ta’sirini prognozlash va oldini olishni, ishbilarmonlik obro‘sini va qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlaydi.

Kompaniyaning Axborot xavfsizligi siyosati quyidagi hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi 547-son Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi 764-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-son qarori;
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi “Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 570-son qarori;
O‘z DSt ISO/IEC 27000:2022 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari. Sharh va lug‘at”;
O‘z DSt ISO/IEC 27001:2020 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari. Talablar”;
O‘z DSt ISO/IEC 27002:2016 “Axborot texnologiyasi. Xavfsizlikni ta’minlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarishning amaliy qoidalari”;
Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan ichki meyoriy hujjatlar, tegishli chora-tadbirlar rejalari.

Maqsad va vazifalar

Kompaniyaning Axborot xavfsizligi siyosatining asosiy maqsadlari axborot munosabatlari subyektlarini moddiy, jismoniy, ma’naviy yoki boshqa zarar yetkazilishidan, axborotlashtirish obyektlarining faoliyatiga tasodifiy yoki ataylab ruxsatsiz aralashish yoki ulardagi ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish va undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilish, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalarning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini bartaraf etish va minimallashtirish, tahdidlarni prognozlash, oldini olish, axborot tizimidagi zaifliklarni aniqlash va bartaraf etish, axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlari, yo‘riqnomalar, nizomlarda belgilangan talablarga rioya qilinishini ta’minlash, Kompaniyaning axborot resurslarini zaxiralash va qayta tiklash holatida bo‘lishini ta’minlash.

Kompaniyaning axborotlashtirish obyektlariga ruxsatsiz kirishning oldini olish va urinishlarni aniqlash, Kompaniyaning axborot resurslari va axborot xavfsizligini boshqarish tizimlaridagi zaifliklarni aniqlash va bartaraf etish, Kompaniyaning barcha xodimlari axborot xavfsizligiga etiborli bo‘lishi, har qanday ehtimoliy tahdidlar to‘g‘risida ma’lumot berishi, konfidensial ma’lumotlarni va tijorat sirlarini hamda mijozlarning personal ma’lumotlarini sir saqlashlari eng muhim vazifadir.

Bugungi kunda Kompaniya nafaqat axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik yo‘nalishida, balki sizning va yaqinlaringizning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ham ishlar olib bormoqda. Bunga bir misol qilib, Kompaniyaning “Kid security”, “Dr.Web - virusga qarshi yechim” xizmatlarini keltirish mumkin.

Axborot xavfsizligi choralari

Axborot xavfsizligi sohasidagi Kompaniyaning ichki-meyoriy hujjatlari Kompaniyaning Xavfsizlik yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linmasi tomonidan shakllantiriladi va saqlanadi. Axborot xavfsizligi bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlar va ularda belgilangan talablar Xavfsizlik yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tomonidan Kompaniyaning barcha xodimlariga yetkaziladi va xodimlar belgilangan talablarga qat’iy rioya qilgan holda ish olib boradilar.

Kompaniya konfidensial ma’lumotlarni himoya qilish va oshkor qilmaslik, axborotni himoya qilish tizimi va vositalarini yaratish va rivojlantirish, xodimlarning axborot xavfsizligi sohasidagi malakasi va xabardorligini oshirish bo‘yicha tegishli ishlarni muntazam ravishda olib boradi.

Kompaniyaning Xavfsizlik yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linmasi korporativ tarmoq, tizim va axborot xavfsizligi administratorlariga yuklatilgan vazifalar bajarilishini nazorat qiladi.

Kompaniyaning xavfsizlik xizmati lokal tarmoqlarda va xodimlarning ish joylaridagi kompyuterlarida axborot xavfsizligi bo‘yicha har chorakda inventarizatsiya ishlari tashkil etiladi va ichki audit doirasida amalga oshiriladi. Inventarizatsiya natijalariga asosan tegishli choralar ko‘rish lozim bo‘lsa, zarur ishlar amalga oshiriladi.

Kompaniya axborot tizimlari va resurslarining ma’lumotlar bazasidagi korporativ elektron pochta ma’lumotlari, rasmiy veb-sayt ma’lumotlari, fayl serveri, asosiy server domen kontrolleri sozlamalari va ma’lumotlari, axborot xavfsizligi vositalarining sozlamalari va ma’lumotlar bazalari muntazam ravishda monitoring qilinadi.

Axborot tizimi ma’lumotlarining ishonchliligini (xavfsizligini) ta‘minlash uchun RAID asosiy va zaxira ma’lumotlar markazlarining ma’lumotlarni saqlash tizimlaridan foydalaniladi.

Ma’lumotlarning jismoniy muhofazasini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar bazasi serverlari va ma’lumotlarni saqlash tizimlari Kompaniyaning Data-markazi (DataCentre)dagi himoyalangan server xonasida joylashtirilgan.

Mehnat shartnomalari tuzilgan xodimlar, shuningdek, xizmat ko‘rsatish va tegishli xaridlarni amalga oshirish uchun shartnomalar tuzilgan hamkorlar bilan konfidensial ma’lumotlarni oshkor qilmaslik haqida shartnomalar imzolanadi.

Kompaniyada axborot xavfsizligini ta’minlashga mas’ul xodimlar muntazam ravishda ushbu yo‘nalishida malaka oshirish maqsadida turli seminar va konferensiyalarda ishtirok etadilar hamda Kompaniyaning barcha xodimlariga Axborot xavfsizligi siyosati talablari bajarilishi maqsadida treninglar o‘tkaziladi.

Axborot xavfsizligi hodisalariga munosabat

Axborot xavfsizligi hodisalarini boshqarish jarayonining asosiy vazifalari:

yo‘qotishlarni minimallashtirish, shu jumladan, hodisalarni tezkorlik bilan aniqlash va takrorlanuvchi hodisalar xavfini kamaytirish;

axborot xavfsizligi hodisalarini tezkor aniqlash, tahlil qilish, ro‘yxatga olish, zarur hollarda axborot xavfsizligi hodisalari bo‘yicha vakolatli organlarni xabardor qilish, hodisalarning manbalari va sabablarini aniqlash hamda ularning oqibatlarini ko‘rib chiqish;

Kompaniyaning axborot resurslariga yetkazilgan zararni minimallashtirish, abonentlar ma’lumotlari oshkor bo‘lishini oldini olish, axborot xavfsizligi hodisasi natijasida axborot resurslari, korporativ tarmoq va axborot resurslari ishlamay qolgan hollarda ularni qisqa vaqt

ichida qayta tiklash hamda axborot xavfsizligi hodisasi oqibatlarini bartaraf etish natijalarini tahlil qilish va tegishli choralar ko‘rish;

Kompaniya tomonidan axborot resurslarining axborot xavfsizligi bilan bog‘liq hodisalar takrorlanishini oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish va axborot xavfsizligi hodisalari bo‘yicha “Kiberxavfsizlik markazi” DUK bilan hamkorlikda zarur ishlarni amalga oshirish.

“O‘zbektelekom” AK tomonidan axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha doimiy ravishda keng ko‘lamli ishlar olib boriladi va takomillashtiriladi.

UZTELECOM - ma’lumotlaringiz ishonchli himoya ostida.